

INGLIZ VA O'ZBEK DRAMALARIDA VERBAL VA NOVERBAL VOSITALAR MUNOSABATI

Nurislom Iskandarovich XURSANOV

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Pedagogika-filologiya kafedrası

Renessans ta'lim universiteti

Toshkent, O'zbekiston

THE RATIO OF VERBAL AND NON-VERBAL MEANS IN ENGLISH AND UZBEK DRAMAS

Nurislom Iskandarovich KHURSANOV

Doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Department of Pedagogy and Philology

Renaissance Education University

Tashkent, Uzbekistan

СООТНОШЕНИЕ ВЕРБАЛЬНЫХ И НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Нурислам Искандарович ХУРСАНОВ

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, и.о. доцента

Кафедра педагогики и филологии

Университет образования ренессанс

Ташкент, Узбекистан nurislomkhursanov92@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-5714-2745>

UDC (UO'K, УДК): 81`221.22

**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для
цитирования):**

Xursanov N. I. Ingliz va o'zbek dramalarida
verbal va nonverbal vositalar munosabati //
O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild,
№ 1 (54). — B. 17-27.

<https://doi.org/10.36078/1709623334>

Received: December 20, 2023

Accepted: February 05, 2024

Published: February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikning turli sohalari tadqiqot obyekti, metodologik masalalari bilan bir-biridan farqlanadi, ayni damda bir-birini taqozo etadi. XX asr oxirlaridan boshlab antroposentrik paradigma to'g'risidagi qarashlarning ustuvorligi bir qator fanlararo sohalar, jumladan, lingvopragmatikaning paydo bo'lishi uchun zamin hozirladi. Dunyo tilshunosligida ikki til imkoniyatlarini o'rganish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima jarayonida yuzaga keladigan fikriy ifoda, uning shakliy tuzilishi, ichki nutq imkoniyatlarini va aniq struktur xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar yaratilmoqda. Diskurs jarayoni, verbal va nonverbal komponentlarning nutq vaziyatidagi o'rni, adresat va adresant lisoniy ongi, madaniyatlararo munosabat belgilari, baho va talqin muammolari tadqiqi til birliklarining nutqda reallashuv imkoniyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Dramatik diskursda verbal va nonverbal komponentlar munosabatini o'zbek va ingliz tillari aspektida tadqiq etish tilshunoslik sohasidagi dolzarb mavzulardan biridir. Maqolada ingliz va o'zbek dramalarida qo'llanilgan verbal va nonverbal vositalar munosabati, mazkur vositalarning diskursiv, lingvokulturologik hamda sotsiolingvistik tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: dramatik diskurs; diskursiv tahlil; antroposentrik paradigma; lingvistika; paralingvistika; lingvokulturologiya; verbal va nonverbal vositalar.



Open Access

Abstract. Various aspects of modern linguistics differ in the object of study and methodological issues.. Since the late 20th century, the dominance of views on the anthropocentric paradigm has paved the way for the emergence of several interdisciplinary fields, including linguo-pragmatics. Studies in world linguistics are being conducted to explore the possibilities of two languages, analyzing the intellectual expression that arises in the process of translation from one language to another, its formal structure, the possibilities of internal speech, and specific structural features. . The discursive process, the role of verbal and non-verbal components in the speech situation, the linguistic consciousness of the addressee and the speaker, indicators of intercultural relations, evaluation, and interpretation issues, serve to illuminate the possibilities of linguistic units in speech. The study of the relationship between verbal and non-verbal components in dramatic discourse, using Uzbek and English languages as examples, is one of the current topics in linguistics. The article discusses the relationship of verbal and non-verbal means used in English and Uzbek dramas. It presents the discourse, linguo-cultural, and sociolinguistic analysis of these means.

Keywords: dramatic discourse; discourse analysis; anthropocentric paradigm; linguistics; paralinguistics; linguoculturology; verbal and non-verbal means.

Аннотация. Различные области современной лингвистики отличаются друг от друга по объекту исследования и методологическим проблемам и в то же время связаны друг с другом. С конца XX века господство взглядов на антропоцентрическую парадигму подготовило почву для возникновения ряда междисциплинарных направлений, в том числе лингвопрагматики. В мировой лингвистике создаются исследования, направленные на изучение возможностей двух языков, анализ интеллектуального выражения, возникающего в процессе перевода с одного языка на другой, его формальной структуры, возможностей внутренней речи и специфических структурных особенностей. Дискурсивный процесс, роль вербального и невербального компонентов в речевой ситуации, языковое сознание адресата и адресанта, признаки межкультурных отношений, проблемы оценки и интерпретации служат исследованию возможностей языковых единиц в речи. Исследование соотношения вербальных и невербальных компонентов в драматическом дискурсе на примере узбекского и английского языков является одной из актуальных тем в области языкознания. В статье представлено соотношение вербальных и невербальных средств, используемых в английских и узбекских драматических произведениях, дискурсивный, лингвистический и социолингвистический анализ этих средств.

Ключевые слова: драматический дискурс; дискурсивный анализ; антропоцентрическая парадигма; лингвистика; паралингвистика; лингвокультурология; вербальные и невербальные средства.

Kirish

Insonning ichki holati ifodasi — his-tuyg‘ular, asosan, yuz, tana va ovoz orqali ifodalanadi. Shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish va saqlash, verbal vositalar bilan bir vaqtda noverbal vositalar (ovoz ohangi, qarash,

imo-ishora va boshqalar) orqali ham amalga oshiriladi. Muloqotda o'zaro hamkorlik, suhbat jarayonida bir-birini qo'llash (fikriga qo'shilish, fikr bildirish) verbal va noverbal vositalar orqali sinxronlashadi (16, 92). Suhbatda boshini qimirlatish yoki boshqasi gaplashayotganda "uh-huh" kabi iboralarni ishlatish tinglovchiga xayrixoh likni ifoda etadi (13).

"Tashqi ko'rinish xabarlarini odatda qabul qilingan birinchi og'zaki bo'lmagan xabarlardir. Boshqa aloqa vositalari qatori tashqi ko'rinishi, nima kiyganligi va jozibadorlik darajasiga qarab odamlar haqida mulohazalarni ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin" (17, 212). Albatta, to'g'ridan to'g'ri muloqotdan ko'ra beixtiyor o'rnatilgan kommunikativ aloqa tinglovchiga ko'proq ta'sir o'tkazadi, xotirada tez saqlanadi va ong ostida oson qayta ishlanadi.

Diskursda kommunikantlar aloqa o'rnatishda turli vositalardan foydalanishadi. Beixtiyor ishlatilgan noverbal vositalar ong osti signallari orqali uzatiladi va so'z bilan tushuntirgandan ko'ra ko'proq aniqroq bo'ladi. Dramatik diskursda asarning birinchi pardasidanoq qahramonlar nutqining verbal vositalar bilan ifodalanishi ko'proq o'ziga tortadi. Noverbal vositalar odamlarning boshqalarni o'ziga o'xshash deb bilishiga ta'sir qiladi va o'z fikrining ta'sir kuchini baholash uchun ishlatiladi. Demak, dramatik diskursda verbal vositalar bilan bir vaqtda noverbal vositalar orqali ifodalanadigan mazmun ham salmoqlikdir. Noverbal vositalar qahramonlarning shaxsiy makonini (personal space) belgilashga yordam beradi. Biz shaxsiy makon deb qo'llagan birikma qahramonlarning muloqotga kommunikantlarni jalb eta olishi, ularni o'ziga ishontira olishi yoki o'zi haqida axborot bera olishini nazarda tutadi.

Asosiy qism

Dramatik diskursning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish, terminlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish, millat hayoti, dunyoqarashi va madaniyatidagi o'rnini belgilashda ahamiyatlidir (8).

Ingliz tilidagi dramalar tahlilida kuzatish mumkinki, odatda, ishlatiladigan har bir muloqot vositasi "shaxsiy makon" doirasiga muvofiq qo'llaniladi. Ingliz pragmalingsvisti M. Argaylning fikricha, "nutqiy vaziyatga muvofiq kelmaydigan noverbal vositaning ishlatilishi adresantning shaxsiy makoniga bostirib kirishni anglatadi. Ya'ni tinglovchiga bu keskin ta'sir ko'rsatadi va u o'zini bundan olib qochishga yoki himoyalashga intiladi" (2). Albatta, bu jarayonda javob reaksiyasi beriladi va to'la yakuniga yetmagan nutqiy vaziyatni yuzaga keltiradi. Shaxsiy makon deganda, shaxsning o'z atrofidagi makoni tushuniladi, hudud esa shaxsiy hayotni ta'minlay oladigan kattaroq hudud (masalan, ofis yoki konferensiya zalidagi maxsus stul) nazarda tutiladi. Demak, shaxsiy makon kommunikantlarning o'ziga bog'liq vositalar (harakatlar, mimika, jestlar), shaxsiy hudud esa nutqiy vaziyatda ishtirok etuvchi boshqa komponentlardir (2). M. Argayl tomonidan "taktil aloqa" termini ishlatiladi va bu o'z navbatida, qo'l ishorasi, tana harakati, turtish orqali shaxsni kommunikatsiyaga chorlashni bildiradi. M. Argayl, buni "...shaxslarni kommunikativ aloqaga taklif qilish", deb baholaydi. Harrisning nuqtayi nazari esa birmuncha farq qiladi. Uning fikricha, "...noverbal vositalar muloqotga chorlashni emas, tartibga solishni

bildiradi. Odamlar qo'l ishorolari orqali boshqalarning xatti-harakatlarini tartibga soladi. U o'z fikrini dalillashda tashkilotlarda xodim, rahbar va hamkorlarning qo'l berishlarini ko'rsatadi. Birgina ushbu harakatning o'ziyoq tasalli berish, qo'llab-quvvatlash va tabriklash, qo'l siqish kabi xatti-harakatlar munosabatlarga qarab, ko'pincha, tashkilotlarda shaxslar konfiguratsiyasini madaniy jihatdan tartibga soladi" (22, 221).

Belgilar to'plamini uning asosiy xususiyati sifatida tavsiflashga asoslangan ta'rif turining aniq kamchiligi shundaki, u tildan noverbal aloqani sun'iy ravishda ajratib turadi. Ya'ni og'zaki bo'lmagan kodlar, ta'rifga ko'ra, kommunikativ bo'lishi mumkin bo'lgan tildan tashqari barcha kodlardir. Shunday qilib, foydalanishimiz mumkin bo'lgan ko'z xatti-harakatlarining turlari oshkor bo'ladi, ammo ular biz aytgan narsalar bilan bir qatorda, haqiqiy o'zaro ta'sirda qanday ishlashi og'zaki bo'lmagan taqdimotda oshkor etilmaydi. Bundan tashqari, bu ta'rif kodlarni bir-biridan ajratib turadi (16, 248–254; 12, 262–263; 29, 38–43). Ya'ni bu signallar odatda boshqa signallardan tashqari xabar tizimlari sifatida ishlatilishini ko'rsatadi. Shunga qaramay, biz bilamizki, muloqot qilayotganda, o'zaro ta'sirni kodlash yoki dekodlash uchun o'zimizning yoki boshqa birovning ovoz ohangiga, holatiga va qarashlariga e'tibor berishimiz mumkin. "Noverbal vositalarning ishlatilishiga ko'ra tasnifda ular anglatayotgan tushuncha asos qilib olinadi va shunga ko'ra ishoralar (noverbal vositalar) turlicha tasnifladi", — deb keltiradi tishunos olim M. Saidxonov (16, 91). Shunga ko'ra, olim noverbal vositalarni quyidagicha tasnif etadi:

- a) ko'rsatuvchi belgilar;
- b) ta'kidlovchi belgilar;
- c) ramziy belgilar;
- d) tasvirlovchi belgilar;
- e) emotsional belgilar (16, 91).

Ingliz dramatik diskursida noverbal vositalar turli funksiyalarni bajaradi. Albatta, yuqorida ta'kidlanganidek, noverbal vositalar nutqiy tayyorgarlik bosqichida ishlatilmaydi va u bevosita namoyon bo'ladi. Bu esa kommunikativ maqsad, emotsiyalarning tinglovchiga anglatilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy jihatdan xosligiga ko'ra, o'zbek dramalaridan farqli ravishda ingliz dramalarida noverbal komponentlarning qo'llanilishida ayrim tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar quyidagi jadvalda tahlil qilindi:

Tashqi ko'rinish:

O'zbek dramalarida:

(1-o'zb) **ALOMAT:** *Kiyib olgan kiyimingizni qarang, yengil sanoat yetishtirayotgan hamma brak mahsulot siz va sizga o'xshaganlarga nasib qiladi. Manavi nima? Kim shu issiqda neylon ko'ylak kiyadi?* (22)

Ingliz dramalarida:

(1-ing) **JIMMY:** *God, how I hate Sundays! It's always so depressing, always the same. We never seem to get any further, do we? Always the same ritual. Reading the papers, drinking tea, ironing. A few more hours, and another week gone. Our youth is slipping away. Do you know that?*

CLIFF: *(throws down paper). What's that?*

JIMMY: (*casually*). Oh, nothing, nothing. Damn you, damn both of you, damn them all... (14)

Yuz ifodasi:

O'zbek dramalarida:

(2-o'zb) **MUALLIF GAPI:** *Qo'chqor haliyam o'ziga kelolmas, lekin og'zi qulog'ida go'yo yuzida kechagi tabassum qotib qolganday edi.* (10)

Ingliz dramalarida:

(2-ing) **JIMMY:** You're doing what?

Silence.

Have you gone out of your mind or something? (To Helena.) You're determined to win her, aren't you? So it's come to this now! How feeble can you get? (His rage mounting within.) When I think of what I did, what I endured, to get you out (18).

Qo'l harakat:

O'zbek dramalarida:

(3-o'zb) **QO'CHQOR** (*uzrli*): Shu desangiz, qo'lingiz ja muzday-da...yuzimni silaganingizda temirga o'xshab ketadi. (**Uning qo'lini yuziga bosib ko'radi.**) Hali bor... (Yana tog'oraga tiqib qo'yadi.) Xafa bo'lmangu Alomatxon, shu Qumrining **qo'llari qadoq bosib**, yorilib ketgan bo'lsayam bir nimasi bor edi-da... O'sha nima ekan-a? Bo'lmasa barmoqlarini ko'sak tilib, g'adir-budur qilib tashlagan. **Qo'lidan desangiz, kirsovun aralash tappining hidi keladi.** (*Xo'rsinib*) Lekin nimasidir bor edi. Keyin ko'zingiz ham g'alati. Yo'q, uzoqdan qarasam durust, yaqiningizga kelsam shishaga o'xshaydi (10).

Ingliz dramalarida:

(3-ing) **LENNY:** Yes, I'd almost certainly have gone through it with my battalion. **Do you mind if I hold your hand?** (15)

O'zbek dramalarida ruhiy tushkunlik, moddiy ahvol kiyim orqali namoyon bo'ladi. Odatda moddiy jihatdan qiynalgan, ruhiy holati hafsalasizlik, charchoqni ifoda etgan kishilarda tashqi ko'rinish kiyimlari yirtilgan, eskirgan, dog' bo'lgan yoki hilviragan tarzda tasvirlanadi (1-jadval/1-o'zb). "**Ustida neylon ko'ylak, oyog'ida "patinka"** — Qo'chqor obrazining o'sha vaqtdagi ham ruhiy ham jismoniy holatini ifodalaydi. O'zbek dramalaridan farqli ravishda ingliz dramalarida ruhiy tushkunlik, moddiy ahvol kiyim orqali bilinmaydi. Ruhiy tushkunlikka tushgan, moddiy ahvoli og'ir holatida ham tashqi ko'rinishga alohida e'tibor qaratiladi: "**It's always so depressing, always the same**", *Always the same ritual* (1-jadval /1-ing).

Tahlilgan tortilgan o'zbek dramalari personajlarining yuz ifodasi orqali xursandlik, xafalik, norozilik singari holatlar ifodalanligini aniqladik. Shuningdek, muloqot ishtirokchilari bir-biriga baho berganda yuz ifodasiga ko'proq e'tibor qaratishadi: "...**lekin og'zi qulog'ida go'yo yuzida kechagi tabassum qotib qolganday edi**" (1-jadval /2-o'zb). Ingliz dramalarida yuz ifodasi kesatiq, ironiya, istehzo ifodalanishi ko'proq kuzatiladi. Shuningdek, yuz ifodasi ichki holatni yashirish vositasi sifatida xizmat qiladi: "**Have you gone out of your mind or something?**" (1-jadval /2-ing).

Qo‘l harakatlari orqali ko‘plab axborotlarni uzatish mumkin. Qo‘l harakatlari kommunikantlar haqida turli taassurotlarni olishga imkon beradi. Biroq o‘zbek dramalarida etnik xoslikka, mentalitetga muvofiq ajralib turuvchi jihat — qo‘lni yuzga bosish. Bu ko‘proq, xayrixohlik va taskin-tasalliga muhtoj ekanligini bildiradi. Asosiysi, bu faqat o‘zbek mentalitetiga xos noverbal elementdir: “...*qo‘lingiz ja muzday-da... (Uning qo‘lini yuziga bosib ko‘radi.)*”, “...*qo‘llari qadoq bosib...*”, “*Qo‘lidan desangiz, kirsovun aralash tappining hidi keladi*” (1-jadval /3-o‘zb). O‘zbek dramalarida hissiy-emotsional holat yuz va ko‘z ifodasi orqali ifodalanadi. Ingliz dramalarida esa qo‘l harakatlari ham hissiy-emotsional holatni ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Qo‘lini o‘pish, qo‘lidan tutish: “*Do you mind if I hold your hand?*” (3.3.1-jadval /3-ing) (8, 26).

“Diskursda tabassum xushmuomalalik va altruizm tuyg‘ularini uyg‘otadi, chunki bu og‘zaki bo‘lmagan ishora jozibadorlik, xushmuomalalik va saxiylikni anglatadi” (11, 132).

Nutqiy vaziyat ham tabassum orqali o‘zgarishi yoki stabillashgan holatda davom etishi mumkin:

ALISON: *All right thank you, dear.*

Cliff: *(grasping her hand). Why don't you leave all that, and sit down for a bit? You looked tired.*

ALISON *(smiling). I haven't much more to do.*

CLIFF: *(kisses her hand, and puts her fingers in his mouth)* (18).

Tabassum qilish orqali keyingi nutqiy vaziyat dasturi unga hamohang tarzda yuzaga kelgan. “Tabassum G‘arb madaniyatida muhim noverbal ishoradir. Tabassum odatda xushmuomalalik, baxt, yaqinlashish va ishontirish bilan bog‘liq” (4, 16; 15, 210). O‘zbek dramalaridan farqli ravishda ingliz dramalarida kulgi, tabassum bilan bog‘liq noverbal vositalar yuqorida ta’kidlanganidek, ichki holatni yashirish, iztiroblarni niqoblash yoki istehzoni ifodalash uchun qo‘llaniladi:

JIMMY: *Yes it's rather us, isn't it? My gosh, look at 'em!*

Snarling themselves silly. Next week a well-known debutante relates how, during an evil orgy in Market Harborough, she killed and drank the blood of a white cockerel. Well — Fortnums must be doing a roaring line in sacrificial cocks! (Thoughtful.) Perhaps that is what Miss Drury does on Sunday evenings. She puts in a stint as evil high priestess down at the Y, W. — probably having a workout at this very moment. (to Helena.) You never dabbled in this kind of thing, did you?

HELENA *(laughs) Not lately!*

Helena laughs. Jimmy looks up quizzically.

Yoki:

ALISON *(with the same comic emphasis). Poor bears! She laughs a little. Then looks at him very tenderly, and adds very, very softly) Oh, poor, poor bears!*

Slides her arms around him (18)

Obrazlar kommunikativ maqsadi, ichki holati istehzoli kulgi va tabassum ortiga berkitiladi. Ushbu jihatni ingliz dramalarida eng ko‘p va faol qo‘llaniluvchi noverbal komponentlardan deyish mumkin.

Dramalarda boshning holati tuyg‘udan ko‘proq holatni anglatadi, chunki u tomoshabinlarda hukmronlik va bo‘ysunish tuyg‘ularini ham

keltirib chiqarishi mumkin. Mignault va Chaudhurining bosh harakati (*boshni egish*) bo'yicha tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, ko'tarilgan bosh tomoshabinlarni hukmronlik, xususan, mag'rurlik, mensimaslik, o'ziga ishonch va takabburlikni dekodlashga olib keladi (1). Egilgan bosh itoatkorlikning dekodlanishiga olib keladi, jumladan, sharmandalik, kamsitish, aybdorlik va hurmat singari holatlarda (5). Shu bois dramalar sahnalashtirilganda ham bosh harakatlariga alohida e'tibor qaratiladi. E'tiborli jihat, ingliz dramalarida boshning qat'iy ko'tarilganligi qomat harakati bilan birga davom etadi va ushbu vosita ham moddiy ahvolni sezdirmaslik yoki ichki kechinmalarni yashirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bosh bilan bog'liq noverbal harakatlar fikrni tasdiqlash yoki inkor etish singari holatlarni ifodalashda ham qo'llaniladi. Bu jihat o'zbek dramalariga ham xos xususiyat:

QO'CHQOR. *"Sal-pal" mish! Yechilmayotganidan ham biluvidim, sening qo'ling tekkanini! Mol arqonlab o'rganib qolgansan-da, bog'lagan tuguningni matroslar ham yecholmaydi! E, qarashvormay ket!*

Bo'pti, kechirdim, qo'lni bo'shat.

Qumri "yo'q" deganday bosh chayqaydi.

Ingliz dramalarini tahlil qilish bilan noverbal vositalar orqali yuzaga keluvchi muloqotni to'rt toifaga bo'lish mumkin: estetik, jismoniy, mexanik va muloqot belgilari.

1. Estetik muloqot ijodiy ifoda orqali yuzaga keladi. Bu san'atning barcha turlarini o'z ichiga oladi: musiqa, raqs, teatr, hunarmandchilik, san'at, rasm va haykaltaroshlik. Bunga balet misol bo'la oladi. Hatto operada ham so'z bor joyda yuz ifodalari, liboslar va imo-ishoralar mavjud.


2. Jismoniy muloqotga tabassum yoki qovog'ini osish, ko'z qisish, teginish, hidlash, salomlashish, imo-ishora va boshqa tana harakatlari kiradi. Ijtimoiy suhbat og'zaki so'zlar bilan bir qatorda ushbu jismoniy signallarning ko'pini ishlatadi.

3. Belgilar og'zaki bo'lmagan muloqotning ko'proq mexanik turi bo'lib, ularga signal bayroqlari yoki chiroqlar kirishi mumkin.


4. O'z-o'zini hurmat qilish uchun muloqot belgilaridan foydalaniladi. Bunga zargarlik buyumlari, avtomobillar, kiyim-kechaklar va ijtimoiy mavqe, moliyaviy imkoniyatlar, ta'sir yoki dinni yetkazish uchun boshqa narsalar kiradi (7, 43–49; 3, 890; 19, 413).

Ingliz tilida dramatik diskursda esa noverbal komponentlarning namoyon bo'lishi etnik va kulturologik jihatdan farqlanadi. Qahramonlar ruhiyatidagi dramatism, to'qnashuv va ziddiyatlar ichki konflikt asosida kechadi va bu nutqda bevosita namoyon bo'lmaydi. Aksariyat hollarda remarkalar bilan ifodalanadi. Og'zaki bo'lmagan muloqot real hayotda hamma joyda mavjud bo'lsa, dramatik diskursda turli darajada namoyon bo'ladi. Biroq u zamonaviy/eksperimental teatrning ba'zi shakllarida hukmron ifoda vositasiga aylanishi mumkin. Og'zaki mazmuni juda oz bo'lgan imo-ishoralar, bayon qiluvchidan tashqari sahnada sodir bo'layotgan harakatga urg'u beradi. Noverbal muloqot tug'ma va universal ekanligi ayon bo'lib tuyulishi mumkin bo'lsa-da, aslida uning ko'p qismi madaniyatga xos kodlar bilan belgilanadi.

1-diagramma (A, B). “Look Back in Anger” dramasida noverbal vositalar (8, 29)



1.1-diagramma A – noverbal vositalar (%)



1.2-diagramma B – noverbal vositalar soni (00)

Jadvalda ko‘rsatilganidek, ovoz tempi, tabassum, bosh va qo‘l harakati, yelka harakati, imo-ishora, ko‘z qarashi orqali ruhiy holat, kommunikativ maqsad ifodalangan. Asosan, ikkilanish, taajjub, hayratlanish, g‘azab, qo‘rquv, hayajon bilan bog‘liq holatlarda noverbal vositalar faol qo‘llaniladi va nutqiy vaziyatni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilidagi dramalarda noverbal vositalar tahlilga tortilgan har ikki dramada ham qahramon ichki holati, o‘ylaridan ko‘ra tashqi vaziyatni ko‘rsatish va ifodalashda faol qo‘llaniladi. Bunga qarama-qarshi ravishda ingliz tilidagi matnlarda, asosan, qahramonning ichki holatiga e‘tibor qaratiladi va u noverbal vositalar orqali ifodalanadi. Yuqorida berilgan jadvalda xijolatlik, uzr so‘rash mazmunini ifodalovchi noverbal komponentlar chastotasi keltirilgan. Aynan mana shunday vaziyatni ifodalovchi verbal komponentlar quyidagicha:

“I am sorry.”, “I am sorry. This is my fault”, “I am sorry. Please forgive me”.

I was only reading the Bishop of Bromley. (Puts out his hands to Alison) How are you, dullin'?

ALISON: *All right thank you, dear.*

CLIFF: *(grasping her hand). Why don't you leave all that, and sit down for a bit? You look tired.*

ALISON: *(smiling) I haven't much more to do.*

CLIFF *(kisses her hand, and puts her fingers in his mouth)* (18).

Amerika Qo'shma Shtatlarida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'z bilan aloqa qilishning o'rtacha uzunligi 2,95 soniyani tashkil qiladi va ikki kishining bir-biriga qarash vaqti o'rtacha 1,18 soniyani tashkil qiladi (15). Ko'z bilan uzoqroq aloqa qilish odamning yuqori qiziqish bilan muloqot qilishini anglatishi mumkin. O'zbek dramatik diskursi tahlili jarayonida shuni kuzatish mumkinki, qahramonlar iloji boricha uzoq vaqt ko'z bilan aloqa qilmaslikni afzal ko'rishadi. Ularning boisi o'zbek mentalitetida, to'g'ridan to'g'ri ko'z bilan aloqa qilish odobsizlik va haqoratni anglatadi. O'zbeklar o'rtasidagi muloqotda ularning ko'zlari ko'z va yuzga qaramasdan, boshqalarning bo'yniga qarashi mumkin, ko'z-ko'z bilan aloqa qilish hurmatsizlikdir. Xitoyda har ikki tomon ham kamtarlik va hurmat ko'rsatish uchun doimo ko'z bilan aloqa qilmasliklari mumkin. Ba'zida yerga qaragan ko'zlar yuqori lavozimli shaxsga hurmat belgisidir. "Uyat tuyg'usi" odamlarga katta ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa musulmon madaniyatida ayollar va erkaklarning ko'z bilan aloqa qilishlari taqiqlangan. Bu farqlar ko'p madaniyatli ish joyida noto'g'ri muloqotga olib kelishi mumkin. Turli madaniyatlardan xabardor bo'lish va hurmat ko'rsatish, turli madaniy kontekstda ko'z bilan aloqa qilishning ushbu farqlarini tushunish boshqalarga do'stona munosabatda bo'lish bilan birga o'z qismi uchun ham foydalidir.

Xulosa

Diskursda muloqotning yuzga chiqishida verbal va nonverbal komponentlar muhim tarkibiy qismlardan sanaladi. Har ikki komponent ham asosiy o'rin tutadi.

Noverbal vositalar nutq aktiga bog'liq, biroq kommunikantlar ongining pragmatik dasturiga bog'liq bo'lmagan holda bevosita muloqot jarayonida ishtirok etuvchi muhim komponent. Madaniyat va submadaniyatlarda nonverbal vositalar bir-biriga zid mazmunni ifodalashi mumkin. Noverbal komponentlar madaniy xoslanish funksiyasiga ega va o'sha til egasining etnik xosligini namoyon etadi.

Noverbal vositalar dramatik diskursda muallif tomonidan remarkalar orqali ko'rsatilishi, qahramonlar xatti-harakatlari vositasida yuzaga chiqishi mumkin. Ushbu vositalar verbal komponentlar bilan birga ishtirok etadi va fikrning to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilishiga yordam beradi. Qo'llanilishiga ko'ra, nonverbal vositalarning gender, ruhiy fiziologik, kulturologik, psixofiziologik, sotsial jihatdan farqlanishi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar/ References

1. Alain Mignault and Avi Chaudhuri. The Many Faces of a Neutral Face: Head Tilt and Perception of Dominance and Emotion, .Journal of

- Nonverbal Behavior, 27 (2), Summer 2003, Human Sciences Press, Inc. available at: <https://link.springer.com/article/10.1023/A:1023914509763>
2. Argyle M. Bodily Communication, 2nd ed., New York, NY: Methuen. 1988, 363 p.
 3. Boshbekov Sh. *Temir khotin. Komediya* (Iron wife. Comedy), www.ziynet.uz
 4. Centorrino, S., Djemai, E., Hopfensitz, A., Milinski, M., & Seabright, P. Honest signaling in trust interactions: Smiles rated as genuine induce trust and signal higher learning opportunities, *Evolution and Human Behavior*, 2015, No. 36 (1), 8–16, available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S109051381000026>
 5. Davletnazarova L.B. Some Reviews on Mathematic Linguistics, 2022, No 1, pp. 226–231, available at: <http://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/view/84>
 6. Davletnazarova L. B. Characteristics of Compound Sentences and Ways to Teach Them, *Pedagogicheskie nauki: Voprosy teorii i praktiki*. 2021, No. 1, pp. 73-75.
 7. Depica Phutela. The Importance of Non-Verbal Communication. Phutela, Deepika, *IUP Journal of Soft Skills*, 2015, No. 4, pp. 43-49.
 8. Dibble J. L., & Rosaen, S. F. Parasocial interaction as more than friendship: Evidence for parasocial interactions with disliked media figures, *Journal of Media Psychology*, 2011, No. 23 (3), pp. 122–132, available at: <https://doi.org/10.1027/1864-1105/a000044>
 9. Khursanov N. I. Types of Semantic Transference in Dramatic Discourse (on the Example of Uzbek and English Texts), *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 2022, Vol.12, No.4., pp. 152–158, available at: <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=4&article=b025>
 10. Khursanov N. I. The Ratio of Verbal and Non-verbal Components in Dramatic Discourse (on the Example of Works in Uzbek and English), Abstract of Dissertation for PhD, Andijan, Andijan State University, 2022, 26 p.
 11. Khursanov N. Discourse and pragmatics: phenomena in linguistics. Uzbekistan: *Language and Culture*. 2023 Oct 4; 1(1).
 12. Khursanov N.I. *International Journal of Word Art*, 2023, No.6 (1), pp. 33-41, available at: <https://zenodo.org/records/7680567>
 13. Khursanov NI. Linguopragmatic Characteristics of Stylistic Units Used in Uzbek and English Dramas. *UzA-National Information Agency of Uzbekistan*, 2022, No 4(4), 2022.
 14. Knapp M. L. *Nonverbal Communication in Human Interaction*, New York: Holt, Rinehart and Winston, 1972, 213 p.
 15. Michael Argyle. *The Psychology of Interpersonal Behaviour*, U.S.A.: Penguin Group. 1994, available at: <https://www.amazon.com/Psychology-Interpersonal-Behaviour-Penguin-November/dp/B00ENKMHG8>
 16. Niyozova G. & Raupova, *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2021, No.3 (02), pp. 210–215.
 17. Nurmonov A. *Tanlangan asarlar*, 3 jildli (Selected works. 3 volumes), Tashkent: Akademyashr, 2012, 263 p.

18. Osborne J. Look Back in anger, London: Faber and Faber, 1996, 103 p.
19. Pinter H., & Cohen, H. The homecoming, Karnac: Curwen, 1968, available at: <https://www.tooveys.com/lots/418204/pinter-harold-harold-cohen-illustrator-the-homecoming-london-h>
20. Raupova L., Khursanov N., Khursanova L., Polatova S. Development of world modern linguistics and discourse interpretation in it, In E3S Web of Conferences 2023, available at: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202341303023>
21. Richmond V. P., McCroskey J. C., & Payne, S. K. Nonverbal Behavior in Interpersonal Relations. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. 1987. Available at: <https://lib.ugent.be/catalog/rug01:000240361>
22. Saidxonov M. Noverbal vositalar va ularning uzbek tilida ifodalanishi (Nonverbal means and their expression in uzbek), candidate's thesis, Tashkent, 1993, 161 p.
23. Шарипова, С., & Раупова, Л. Проблема литературного языка в первой половине написанных источников XIX века. Общество и инновации, 2(4/S). 2021. С. 890-898. – Sharipova S., & Raupova L. *Obshchestvo i innovatsii*, 2021, No.2 (4/ S), pp. 890–898.
24. Zellig S. Harris. The structure of science information. Journal of Biomedical Informatics, Volume 35, Issue 4, August 2002, pp. 215-221, available at: [https://doi.org/10.1016/S1532-0464\(03\)00011-X](https://doi.org/10.1016/S1532-0464(03)00011-X)